

ESHQOBIL SHUKUR SHE'RIYATIDA STILIZATSION FOLKLORIZM

Hamdamova Hurriyat Sodiqovna*Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti**“O'zbek tili va adabiyoti” yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yirik vakillaridan biri Eshqobil Shukur ijodida stilizatsion folklorizmning namoyon bo'lish shakllari tahlil qilindi. Shunigdek, Eshqobil Shukurning folklor manbalarini qayta ijodiy o'zlashtirish mahorati, xalqona ritm va obrazlar tizimidan foydalanish usullari hamda ularning she'riy matndagi estetik vazifasi yoritildi.

Kalit so'zlar: folklorizm, stilizatsion folklorizm, Eshqobil Shukur, xalq qo'shiqlari, ritm stilizatsiyasi, obraz stilizatsiyasi, folklor an'analari, poetika.

Аннотация. В данной статье анализируются формы проявления стилизационного фольклоризма в творчестве Эшкabila Шукура, одного из крупнейших представителей современной узбекской поэзии. Также были освещены мастерство Эшкabila Шукура в творческом освоении фольклорных источников, методы использования системы народных ритмов и образов, а также их эстетическая функция в поэтическом тексте.

Ключевые слова: фольклоризм, стилизационный фольклоризм, Эшкobil Шукур, народные песни, стилизация ритма, стилизация образа, фольклорные традиции, поэтика.

Abstract. This article analyzes the forms of manifestation of stylized folklore in the work of Eshqobil Shukur, one of the major representatives of modern Uzbek poetry. Also, Eshqobil Shukur's mastery of creative assimilation of folklore sources, methods of using the system of folk rhythms and images, and their aesthetic function in the poetic text were highlighted.

Keywords: folklore, stylized folklore, Eshqobil Shukur, folk songs, rhythm stylization, image stylization, folklore traditions, poetics.

Kirish. Folklor va yozma adabiyot munosabati adabiyotshunoslikning muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi asrlar davomida milliy adabiyotning badiiy-estetik manbai sifatida xizmat qilib kelgan. Zamonaviy she'riyatda folklor unsurlaridan foydalanishning turli shakllari mavjud bo'lib, ulardan biri stilizatsion folklorizmdir. Stilizatsion folklorizmda folklor matni aynan takrorlanmaydi, balki xalqona uslub, ritm, motiv va obrazlar ijodkor tomonidan yangi badiiy talqin asosida qayta yaratiladi [1; 2].

R.Z.Rajabova folklor janrlarining yozma she'riyatdagi stilizatsiyasi masalasini tadqiq etar ekan, folklor shakllari va poetik unsurlarining zamonaviy adabiyotdagi ijodiy transformatsiyasi milliy poetik tafakkur taraqqiyotining muhim ko'rinishlaridan

biri ekanligini ta'kidlaydi [1]. X.Najimova esa stilizatsion folklorizmni murakkab folklorizmning alohida turi sifatida baholab, unda folklorning janr, motiv, ritm va obrazlari ijodkorning individual poetik tafakkuri orqali yangicha mazmun kasb etishini qayd etadi [2]. Ana shunday poetik hodisaning yorqin namunalari Eshqobil Shukur she'riyatida keng kuzatiladi.

Asosiy qism.

Eshqobil Shukur she'riyatida folklor poetikasining stilizatsiyasi. Eshqobil Shukur ijodining muhim xususiyatlaridan biri xalq og'zaki ijodining poetik imkoniyatlarini zamonaviy she'riyat estetikasi bilan uyg'unlashtira olganidadir. Shoirning bolalikdan xalq qo'shiqlari, dostonlar, afsona va rivoyatlar muhitida ulg'aygani uning poetik dunyoqarashida folklor qatlamining mustahkam o'rin egallashiga sabab bo'lgan [4].

Shoirning "Sholi qo'riqchisi" she'ri stilizatsion folklorizmning yorqin namunalaridan biridir. Asarda xalq mehnat qo'shiqlariga xos murojaat shakllari, takrorlar va ritmik tuzilma qo'llanadi:

*"Chumchuq, chumchuq, sho'rtumshuq,
Hoyyo-huyt! Hoyyo-huyt!"*

Ushbu misralardagi "Hoyyo-huyt" undovlari bevosita xalq mehnat qo'shiqlarining ohangini eslatadi. Biroq shoir folklor matnini aynan ko'chirmaydi, balki uning ritmik modelini zamonaviy poetik mazmun bilan boyitadi. Natijada ritm stilizatsiyasi yuzaga keladi. Bu holat stilizatsion folklorizmning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi [2].

Eshqobil Shukurning "Ruhim" she'rida ham xalq marosim qo'shiqlariga xos ritmik takrorlar va ohangdorlik kuzatiladi. "Ahay-aha-hay" kabi takroriy birliklar xalq qo'shiqlarining musiqiy tabiatini esga soladi. Bunday poetik vositalar she'rning emotsional ta'sir kuchini oshiradi hamda matnni xalqona ruh bilan sug'oradi [4].

Janr stilizatsiyasi va marosim folklori. Shoir ijodida yo'qlov va yig'i janrlarining stilizatsiyasi alohida ahamiyatga ega. S.Ergashovanning ta'kidlashicha, Eshqobil Shukurning "Mengim momoning yo'qlovi" she'rida xalq motam marosimlariga xos yig'i va yo'qlov janri poetik asos sifatida xizmat qiladi [3].

Asarda folklorga xos iztirob, armon va vatan sog'inchi motivlari yangi badiiy mazmun bilan boyitilgan. Yo'qlovning an'anaviy kompozitsiyasi saqlangan bo'lsa-da, lirik qahramonning ichki kechinmalari orqali zamonaviy ruhiy-falsafiy qatlam yuzaga keladi. Shu sababli mazkur asarni janr stilizatsiyasining muvaffaqiyatli namunasi sifatida baholash mumkin [3].

Shoirning "Xalq ohangida" va "Qadimiy qo'shiq" kabi she'rlarida ham qadimiy qo'shiq janrining poetik modeli qayta tiklanadi. Tadqiqotchilar qayd etganidek, ayrim hollarda xalq orasida saqlanib qolgan bitta misra yoki obraz butun bir yangi she'r yaratilishiga turtki bo'lgan [3].

Obraz va motiv stilizatsiyasi. Eshqobil Shukur folklor obrazlarini ham ijodiy qayta talqin qiladi. Shoir she'rlarida Oy, Quyosh, shamol, qush, suv, daraxt singari mifopoetik

obrazlar faol qo'llanadi. Masalan, "Eng qadimgi qo'shiq" she'rida Oy obrazi qadimiy mifologik tasavvurlar bilan bog'langan holda talqin qilinadi:

"Qizning ko'ksida qoldi

Ikkiga bo'lingan Oy..."

Bu yerda Oy nafaqat tabiat hodisasi, balki qadimiy xalq tasavvurlarida uchraydigan poetik ramz sifatida namoyon bo'ladi. Folklor poetikasiga xos obraz zamonaviy estetik talqin bilan uyg'unlashgan.

Shuningdek, shoirning ko'plab she'rlarida suv, yomg'ir, qush va daraxt obrazlari xalq qo'shiqlaridagi kabi ramziy ma'nolarni ifodalaydi. Biroq ular yangi badiiy kontekstda qo'llanib, individual poetik ma'no kasb etadi. Bu esa obraz stilizatsiyasining samarali ko'rinishi hisoblanadi [1; 2].

Ritm stilizatsiyasi va xalqona ohang. Eshqobil Shukur she'riyatining eng xarakterli jihatlaridan biri xalqona ritm va musiqiylikdir. Shoir ko'pincha xalq qo'shiqlariga xos parallelizm, takror, saj', qofiya va ritmik formulalardan foydalanadi.

Masalan:

"Og'ir-og'ir falaklar,

Og'ir-og'ir silkinib..."

yoki

"Yengil-engil xayollar,

Yengil-engil sochingga..."

kabi misralarda takroriy sintaktik qurilmalar xalq qo'shiqlarining ritmik tabiatini eslatadi. Bu usul she'rning musiqiylikni kuchaytiradi hamda folklor ohanglarini zamonaviy she'riyatga olib kiradi.

X.Najimovanning qayd etishicha, stilizatsion folklorizmning asosiy belgilaridan biri folklorga xos ritm va ohangni yangi matn tarkibida qayta yaratishdir [2]. Eshqobil Shukur ijodida aynan shu xususiyat yetakchi poetik tamoyillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Eshqobil Shukur she'riyati zamonaviy o'zbek adabiyotida stilizatsion folklorizmning yuksak namunalarini yaratgan ijodiy maktablardan biridir. Shoir folklor janrlari, motivlari, obrazlari va ritmik qurilmalarini ijodiy qayta ishlash orqali ularga yangi estetik mazmun baxsh etadi. Uning she'rlarida folklor matni oddiy taqlid darajasida emas, balki individual badiiy tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Xususan, "Sholi qo'riqchisi", "Ruhim", "Mengim momoning yo'qlovi", "Qadimiy qo'shiq", "Xalq ohangida" kabi asarlarda janr, ritm, obraz va motiv stilizatsiyasining turli ko'rinishlari kuzatiladi. Natijada Eshqobil Shukur she'riyati xalq og'zaki ijodi bilan zamonaviy poetik tafakkur o'rtasidagi badiiy ko'prik vazifasini bajaradi. Bu esa shoir ijodining milliy adabiyot taraqqiyotidagi o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rajabova R.Z. O‘zbek folklori lirik va paremik janrlarining yozma she’riyatdagi stilizatsiyasi: filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati: 10.00.02 – O‘zbek adabiyoti. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2026. – 76 b.
2. Najimova X. Stilizatsion folklorizmning o‘ziga xos xususiyatlari // Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – Vol. 2, Issue 5. – B. 420–427.
3. Ergashova S. Eshqobil Shukurning stilizatsiya xarakteridagi she’rlari tahlili // Volume. – 2023. – Vol. 2, Issue 11. – B. 53–63.
4. Axmedova G.A. Eshqobil Shukur she’riyatida folklor ohanglari // Ilmiy maqola. – 2024. – B. 347–352.
5. Shukur E. Hamal ayvoni (she’rlar va doston). – Toshkent, 2003. – 171 b.